

UDK. 632.937

XORAZM VILOYATIDAGI INTENSIV BOG'LARDA UCHRAYDIGAN KALIFORNIYA QALQONDORINING TARQALISHINI O'RGANISH

Ruzmetov Shaxnazar Tajibayevich

O'simliklar karantini va ximoyasi ilmiy tadqiqot instituti Xorazm filiali

shoxnazarruzmetov@gmail.com

Annotation. *This article presents information on the distribution and damage caused by the Californian beetles in intensive apple orchards based on the results of the study of the biology and distribution of Californian beetles, among the pests that spread in intensive apple orchards in Khorezm region.*

Key words: *california shields, vegetation period, fungus, worms, eggs.*

Kirish. Ma'lumki, hozirgi kunda bog'dorchilik qishloq xo'jaligining muhim soxasi hisoblanadi. Axolini meva va meva maxsulotlariga, sanoatni meva xom ashyosiga bo'lgan talabini qondirishga xizmat qiladi. Jaxon bog'dorchiligida 200 dan ortiq meva turlari ekiladi. Respublikamizda esa 20 dan ortiq turi ekiladi. Bulardan o'rik, shaftoli, olxo'ri, gilos, olcha, olma, behi, nok asosiy o'rinni egallaydi. Mevali bog'lardan yuqori va sifatli xosil olish uchun turli zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish dolzarb masala hisoblanadi. Mevali bog'larda hozirgi kunda uchraydigan asosiy zararkunandalardan Sharq mevaxo'ri, olma mevaxo'ri, meva kuyalari, Kaliforniya Qalqondori, olma arrakashi, olcha pashshasi kabilar kiradi [5, 6, 7, 8, 9.].

Hozirgi kunda respublikamizda ichki karantin obyekti hisoblangan Kaliforniya Qalqondori mevali daraxtlarga kuchli zarar yetkazmoqda.

Kaliforniya qalqondori (*Quadraspidiotus perniciosus* Comstock) - teng qanotli hartumlilar turkumining qalqondorlar oilasiga mansub hasharot. Xorazm viloyati sharoitida manzarali va intensiv mevali shuningdek o'rmondagi bargli o'rmon daraxtlarining o'ta xavfli karantin zararkunandasi. Kaliforniya qalqondori mevali daraxtlardan asosan olma, nok, olxo'ri, olcha, shaftoli, gilos, o'rik, hamda qora smorodina, o'rmon va manzarali o'rmon daraxtlari, o't o'simliklaridan loviya, sabzi, chirmovuq va oshqovoqda ko'proq uchraydi va vegetatsiya davrining oxirigacha rivojlanib, mavsum tugashi bilan zararkunandaning o'zi ham halok bo'ladi. . Intensiv

mevali daraxtlarning asosan po'stlog'i, novdasi, bargi va mevalarini zararlaydi. Asosan, zararlangan mevalarda yoki novdalarda qizg'ish dog'lar paydo bo'lishi bilan bir qatorda chuqurchalar va shishlar paydo bo'ladi, shu sababli po'stloq notekis holga kelib qoladi va po'stloq ustida dog'lar uzoq muddat qalqondorlar koloniyasining zararlashi natijasida ayrim shoxlar xatto butun daraxt tanasi qurib qolishiga olib keladi [2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.].

Tadqiqot usullari: Hasharotlar tur tarkibi aniqlashda fitosanitariya laboratoriyasida raqamli mikroskop orqali V.V.Yaxontovning "O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi zararkunandalari" (1962 y) kitobidan foydalanildi [1].

Xorazm viloyatidagi intensiv olma bog'lardagi qalqondorlarni aniqlashda ham dala tekshirishlari Urganch tumanidagi PSUITI Xorazm ITS va Xonqa tumani "Karimboy Rashid ota bog'i" fermer xo'jaligining intensiv olma bog'laridagi "Golden delishes" navida olib borildi.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan tajribalarga asosan tanlangan 10 tup daraxtdagi har bir daraxtning 10 ta shohidagi butoqlar soni sanaldi, ulardan 5 tasining umumiy va zararlangan barglari soni aniqlanadi. 3ta zararlangan barglardagi zararkunandalar va akarifaglar miqdori hisoblanadi bitta shoxdagi zarakunandalar miqdori Abbotformula yordamida topiladi.

Bunda Xonqa tumanidagi "Karimboy Rashid ota bog'i" fermer xo'jaligi intensiv olma bo'g'ining "Golden delishes" navidagi tanlangan daraxtning 10 ta shoxidagi butoqlar soni sanalib, ulardan 5 tasining umumiy va zararlangan barglari soni aniqlandi va 3 ta zararlangan barglardagi o'rtacha aniqlangan qalqondorlar aprel oyida 1 tani, Urganch tumani "PSUITI" Xorazm ITS intensiv olma bog'ining "Golden delishes" navida 0,7 tani tashkil qildi va Xonqa tumanidagi "Karimboy Rashid ota bog'i" fermer xo'jaligi 0,3 donaga kamligi aniqlandi.

May oyida esa tanlangan daraxtlarning, 3 ta bargida o'rtacha, 2 ta qalqondor borligi, iyun oyida esa tanlangan daraxtlarning, 3 ta bargida o'rtacha, 3 ta qalqondor borligi va iyul oyida tanlangan daraxtlarning, 3 ta bargida o'rtacha, 2 ta o'rgimchakkana borligi avgust oyida esa tanlangan daraxtlarning, 3 ta bargida o'rtacha, qalqondorlar borligi aniqlanmadi. Aprel oyida may oyiga nisbatan 1 donaga kamligi, may oyida iyun

oyiga nisbatan 1 donaga ko'pligi va iyun oyida iyul oyiga nisbatan 1 donaga kamligi va iyul oyida avgust oyiga nisbatan 2 donaga ko'pligi aniqlandi.

1- jadval

Xorazm viloyati sharoitida intensiv olma bog'larining "Golden delishes" navida aniqlangan qalqandor miqdori

№	Tadqiqod olib borilgan oylar	Xonqa tumani "Karimboy Rashid ota bog'i" f/x (dona)	Urganch tumani PSUITI Xorazm ITS (dona)
1	Aprel	1	0
2	May	2	1
3	Iyun	3	2
5	Iyul	2	1
6	Avgust	0	0
	O'rtacha:	1,4	0,7

Xulosa qilib aytganda Xonqa va Urganch tumanlaridagi intensiv olma bog'laridagi "Golden delishes" olma navlarining qalqondor bilan zararlanishi iyun oyida kuchli bo'lib, aprel oylarida paydo bo'la boshladi, may oyida ko'paya boshladi va avgust oyida aniqlanmadi va Xonqa tumani "Karimboy Rashid ota bog'i" f/xdagi qalqondorning tarqalishi o'rtacha 1,4 donani, va Urganch tumani "PSUITI" Xorazm ITSda esa 0,7 donani tashkil qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги зараркунандалари. – Тошкент: "Ўрта ва олий мактаб", 1962. – Б. 368-382.
2. Sayfiev A.X., Qurbonmurodova M.B., Muxammadiev B.Q. Kaliforniya Qalqondori bioekologiyasi. Agro ilm, 3-son, 2016 yil.
3. Imomaliyev E.N., Raxmonova M.K. Mevali bog'lardagi kaliforniya qalqondori biologiyasi, zarari va uchrash darajasi. (2022). International conference on learning and teaching, 1 (8), - B.388–391.
4. Обиджанов Д. Опасный вредитель в садах Узбекистана //Ж. Защита и карантин растений. – Москва, 2009. – №3. – С.52.
5. Karakhodjaeva G., Obidzhanov D., Mirzaev M. The importance of nutrients in the leaves in the fertilization of apple orchards // The American Journal of Agriculture and

Boimedical Engineering (ISSN – 2689-1018) Published: May 30, 2022 | Pages: 46-49. Doi: <https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume04Issue05-12>.

6. Dilshod Obidzhanov & Mansur Muminov. Combat against roll moth in apple orchards. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, Published Date: September 30, 2022 | Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume04Issue09-02>

7. Obidjanov D.A., Matniyazov B.U. Xorazm vohasi olma bog'larida o'rgimchakkanaga qarshi Promayt 73% em.k. preperatini biologik samaradorligi. //Agrokimyohimoya va o'simliklar karantini. Jurnal. Maxsis son 5. (Respublika ilmiy-amaliy anjumani) – Toshkent, 2024. – B. 150-152.

8. Д.А.Обиджанов, Б.У.Матниёзов. Insecticide Twingo euro, md s.k. in the fight against leaf rollers and scale insects on the apple tree. //Web of Agriculture: Journal Agriculture and Biological Sciences. Volume 2, Issue 8, August - 2024 ISSN (E): 2938-3781. P. 19-22.

9. Obidjanov D.A., Matniyazov B.U. Insecticide medouz, md in the fight against apple codling moth and aphids on apple trees. The usa journals the american journal of agriculture and biomedical engineering (ISSN – 2689-1018) volume 06 Issue09 11 <https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajabe> published date:-10-09-2024 DOI:- <https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume06Issue09-03>